


**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI
TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI**

O'quv-uslubiy boshqarma
tomonidan ro'yxatga olindi

№ 2014000259
2014 yil 20 avgust

Institut Kengashining
№1-sonli qarori bilan

TASDIQLANGAN
(2014 yil 22 avgust)



PENSIYA JAMG'ARMASI FAOLİYATI

O'QUV DASTURI

Oliy ta'limning

Bilim sohasi:	200000	–	Ijtimoiy soha, iqtisod va huquq
Ta'lim sohasi:	230000	–	Iqtisod
Ta'lim yo'nalishi:	5231300	–	Pensiya ishi

Fanning o‘quv dasturi Toshkent moliya institutida ishlab chiqildi.

Tuzuvchilar:

Sh. Hamdamov – Toshkent moliya instituti “G’aznachilik ishi” kafedrası katta o‘qituvchisi

B.Nurmuhamedova - Toshkent moliya instituti “G’aznachilik ishi” kafedrası katta o‘qituvchisi

Taqrizchilar:

A. Norqulov - Toshkent moliya instituti “Moliya” kafedrası dotsenti, i.f.n.(ichki).

D.Pulatov- O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G’aznachiligi Moliyaviy majburiyatlarni ro‘yxatga olish va to‘lovlarni amalga oshirish bo‘limi boshlig‘i, dotsent, i.f.n. (tashqi).

Fanning o‘quv dasturi institut Ilmiy-uslubiy Kengashining 2014 yil 22 avgustdagi №1-son majlis bayoni bilan tanlov fani sifatida ma’qullangan.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi taraqqiyotining bugungi bosqichida iqtisodiyotni barqaror va mutanosib rivojlantirish, jahon bozorlarida mustahkam o'rin egallash, shular asosida izchil iqtisodiy o'sishni ta'minlash, xalqimizning hayot darajasi va farovonligini yanada oshirish, faol ijtimoiy siyosatni olib borish orqali ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash borasidagi vazifalarni to'liq va samarali amalga oshirish vazifalarini bajarishda davlat maqsadli jamg'armalarining hamda ularning muhim tarkibiy qismi bo'lgan Pensiya jamg'armasi amal qilish mexanizmlarini puxta o'rganish har qachongidan ham dolzarbdir.

Ushbu dastur Pensiya jamg'armasining mohiyati, davlat pensiya siyosatini amalga oshirishdagi ahamiyati, fuqarolarning pensiya ta'minoti tamoyillarini, Pensiya jamg'armasi daromadlari va xarajatlari tizimining amal qilish mexanizmlari, Pensiya jamg'armasi faoliyati nazoratini tashkil qilish masalalarini qamrab oladi.

O'quv fanining maqsadi va vazifasi

“Pensiya jamg'armasi faoliyati” fanining asosiy maqsadi – talabalarga pensiya tizimi va pensiya jamg'armalari haqida nazariy bilimlar berish, ularda mamlakatda amalga oshirilayotgan ijtimoiy dasturlarda ko'zda tutilgan tadbirlarni amalga oshirishning bugungi sharoitida davlat pensiya siyosatining asosiy yo'nalishlari va ularni hayotga tadbiq etish yo'llari bo'yicha asosiy ko'nikmalar hosil qilishdan iborat.

Fanning vazifalari – Pensiya jamg'armasining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati va ahamiyatini o'rganish; Pensiya jamg'armasi tizimi amal qilish asoslarini o'rganish; Pensiya jamg'armasini boshqarishning tashkiliy asoslarini o'rganish; Pensiya jamg'armasi daromadlari tizimini va uning manbalarini o'rganish; Pensiya jamg'armasi xarajatlari tizimi va tarkibini o'rganish; Pensiya jamg'armasida moliyaviy nazoratni amalga oshirish va tashkil etish asoslarini o'rganish; Pensiya jamg'armasi madlag'larini tartibga solish usullari va vositalarini o'rganish; iqtisodiy rivojlanishning har bir bosqichida davlat ijtimoiy siyosatining asosiy yo'nalishlarini hamda ularning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish va h.k.

Fan bo'yicha talabalarning bilimiga, ko'nikma va malakasiga qo'yiladigan talablar

“Pensiya jamg'armasi faoliyati” o'quv fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida bakalavr:

- Pensiya jamg'armasining mohiyati, zarurligi, belgilari va funktsiyalari;
- davlat pensiya siyosatining mazmuni, vazifalari, rivojlanish bosqichlari;
- Pensiya jamg'armasi tizimini boshqarish va tartibga solish asoslari;
- xorijiy mamlakatlar pensiya tizimlari va pensiya tizimi qurilishi;
- Pensiya jamg'armasi daromadlari va xarajatlari tarkibi va tuzilishi;
- Pensiya jamg'armasi daromadlarining shakllanish manbalari va ishlatish yo'nalishlari;

- Pensiya jamg‘armasi bilan davlat budjeti o‘rtasidagi budjetlararo munosabatlarning shakllari haqida *tasavvurga ega bo‘lishi*;
- pensiya tizimlari rivojlanishining qonuniyatlarini;
- Pensiya jamg‘armasi holatini baholash va tahlil qilish uslubiyotini;
- Pensiya jamg‘armasi budjetining istiqbolini belgilash asoslarini;
- Pensiya tizimi qonunchiligi asoslarini;
- pensiya tizimlari rivojlanish strategiyasi va taktikasini;
- Pensiya jamg‘armasining g‘azna ijrosini tashkil etish masalalarini;
- pensiya ishini tashkil etish tamoyillarini *bilishi va ulardan foydalana olishi lozim*;
- Pensiya jamg‘armasi ko‘rsatkichlarining prognoz hisob-kitobini tuzish, Pensiya jamg‘armasi budjeti ijrosi yakunlarini tahlil etish bo‘yicha;
- Pensiya jamg‘armasi tizimini boshqarish organlari faoliyatini tashkil etish va natijalarini baholash bo‘yicha;
- Pensiya jamg‘armasi tizimi va qurilishining hozirgi zamon holati va rivojlanish qonuniyatlarini tahlil qilish bo‘yicha;
- Pensiya jamg‘armasi budjet nazorati organlari faoliyatini tashkil etish bo‘yicha;
- Pensiya jamg‘armasi mablag‘lari iste‘molchilari majburiyatlarini bajarish bo‘yicha;
- Pensiya jamg‘armasi quyi bo‘g‘inlari faoliyatini tartibga solish bo‘yicha;
- Pensiya jamg‘armasi budjeti ijrosi bo‘yicha hisobotlarni tuzish va tahlil etish bo‘yicha;
- Pensiya jamg‘armasi budjeti ijrosi natijalarini hisob-kitob qilish bo‘yicha;
- Pensiya jamg‘armasini boshqarish organlari faoliyatida zamonaviy kompyuter texnologiyalardan foydalanish bo‘yicha;
- Pensiya jamg‘armasi amaliyotiga oid me‘yoriy-huquqiy hujjatlardan maqsadga muvofiq foydalanish bo‘yicha;
- Pensiya jamg‘armasining rivojlanish qonuniyatlarini aniqlash maqsadida ilmiy tadqiqotlarni o‘tkazish bo‘yicha *ko‘nikmalariga ega bo‘lishi kerak*;
- Pensiya jamg‘armasi budjeti resurslarini boshqarishning asosiy usullarini, ularda moliyaviy faoliyatning o‘ziga xos xususiyatlari;
- Pensiya jamg‘armasi budjeti mablag‘larini investitsiya qilish tamoyillari;
- Pensiya jamg‘armasi budjetini prognozlashtirish usullarini, rivojlanish dasturlari va joriy, o‘rta muddatli budjetni tuzish asoslari;
- Pensiya jamg‘armasi budjeti daromadlarini shakllantirish va xarajatlarni optimallashtirishning kontseptual asoslari;
- Pensiya jamg‘armasi budjeti xarajatlarini rejalashtirish va moliyalashtirish asoslari;
- Pensiya jamg‘armasi amal qilish mexanizmlaridan foydalanish;
- Pensiya jamg‘armasi orqali moliyaviy barqarorlikni ta‘minlash usullari;
- Pensiya jamg‘armasi tizimi bo‘g‘inlari faoliyatini tartibga solish usublari;

– Pensiya jamg‘armasi budjetini shakllantirish va taqsimlashning optimal modelining qurilishi yuzasidan tegishli *malakalariga ega bo‘lishi kerak.*

Fanning o‘quv rejadagi boshqa fanlar bilan o‘zaro bog‘liqligi va uslubiy jihatdan uzviy ketma-ketligi

“Pensiya jamgarmasi faoliyati” fani tanlov fani hisoblanadi. Mazkur fanni o‘zlashtirishda o‘quv rejasida rejalashtirilgan ijtimoiy-iqtisodiy (Iqtisodiy nazariya), umumkasbiy (Statistika, Makroiqtisodiyot, Moliyaviy va boshqaruv tahlili, Soliqlar va soliqqa tortish) va ixtisoslik (Moliya, Davlat budjeti) fanlaridan etarli bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishlik talab etiladi.

Fanning ishlab chiqarishdagi o‘rni

Pensiya jamg‘armasi davlat moliya tizimining tarkibiy qismini tashkil etadi. Pensiya jamg‘armasi mazmuni bevosita davlatning ijtimoiy funktsiya va majburiyatlaridan kelib chiqadi. Chunki davlatning ijtimoiy siyosati tadbirlarini, ijtimoiy va pensiya ta‘minotini moliyaviy mablag‘lar bilan ta‘minlashda Pensiya jamg‘armasi asosiy o‘rinni egallaydi.

Ijtimoiy ta‘minot tizimini boshqarish va taribga solishda, ijtimoiy barqarorlikni ta‘minlashda, har bir davrning ustuvor taraqqiyot vazifalarini muvaffaqiyatli bajarishda davlatning boshqa iqtisodiy instrumentlari qatori, Pensiya jamg‘armasi ham muhim ahamiyat kasb etadi va ma‘lum vazifalarni bajaradi. Bu vazifalarning samarali bajarilishi tegishli mexanizmning ishlab chiqilishi va amal qilishi bilan ta‘minlanadi.

Fanni o‘qitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar

Talabalarning “Pensiya jamg‘armasi faoliyati” fanini o‘zlashtirishlari uchun o‘qitishning ilg‘or va zamonaviy usullaridan foydalanish, yangi axborot-pedagogik texnologiyalarni tadbiq etish muhim ahamiyatga egadir. Fanni o‘zlashtirishda darslik, o‘quv va uslubiy qo‘llanmalar, ma‘ruza matnlari, tarqatma materiallar, multimediyalar hamda davlat moliyasi amaliyotidagi rasmiy xujjatlar va hisobotlardan foydalaniladi. Ma‘ruza va amaliy darslarda mos ravishda ilg‘or pedagogik texnologiyalardan: aqliy hujum, situatsion vazifalarni echish, kichik guruhlarda topshiriqlar bajarish, amaliy ish o‘yinlaridan foydalaniladi.

ASOSIY QISM

Fanning nazariy mavzulari mazmuni

“Pensiya jamg‘armasi faoliyati” fanining predmeti, maqsad va vazifalari

“Pensiya jamg‘armasi faoliyati” fanining iqtisodiy fanlar va ixtisoslik fanlar tizimidagi o‘rni va ahamiyati. Fanning predmeti, asosiy mazmuni, tarkibiy tuzilishi, vazifalari. Fanning boshqa iqtisodiy fanlar bilan bog‘liqligi

Pensiya jamg'armasining zarurligi va ahamiyati

Pensiya jamg'armasining tuzilishi. Pensiya jamg'armasining pensiya ta'minotini mablag' bilan ta'minlashdagi o'rni va ahamiyati. Pensiya jamg'armasi orqali yalpi ichki mahsulot va milliy daromadning taqsimlanishi va qayta taqsimlanishi. Pensiya jamg'armasining jamlanma budjet va davlat maqsadli jamg'armalari tarkibida tutgan o'rni. Pensiya jamg'armasining budjet tizimining boshqa bo'g'inlari bilan o'zaro munosabatlari. Pensiya jamg'armasi – boshqaruv organi sifatida.

Pensiya jamg'armasi faoliyatining huquqiy asoslari

Pensiya jamg'armasi faoliyatining huquqiy asoslari. Pensiya faoliyati huquqi. Pensiyalarni tayinlash va to'lash munosabatlarini tartibga soluvchi huquqiy hujjatlar. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi – pensiya ta'minotining huquqiy asosi sifatida. "Davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi Qonunning qabul qilinishi, uning mazmuni, tarkibi, ijtimoiy ta'minot munosabatlarini tartibga solishdagi ahamiyati. Pensiya qonunchiligidagi so'nggi o'zgarishlar va rivojlanish istiqbollari.

Pensiya siyosati va pensiya faoliyati mexanizmi

Pensiya jamg'armasi - davlat ijtimoiy siyosatini amalga oshirish quroli sifatida. Pensiya siyosatining mazmuni, pensiya siyosati taktikasi va strategiyasi. Mustaqillik yillarida O'zbekiston Respublikasi pensiya siyosatining rivojlanish bosqichlari, maqsad va vazifalari. Mamlakatda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda Pensiya jamg'armasidan foydalanishning asosiy yo'nalishlari. Davlatning Pensiya jamg'armasi mablag'larini boshqarish va tartibga solishdagi siyosatining o'ziga xos xususiyatlari.

Pensiya jamg'armasini boshqarish

Pensiya jamg'armasini boshqarish to'g'risida tushuncha. Boshqarish sub'ektlari, ularning guruhlanishi, asosiy vazifalari. Pensiya jamg'armasining markaziy va mahalliy boshqaruv organlari, ularning Pensiya jamg'armasi tizimini boshqarish organlarining vakolatlari, huquq va majburiyatlari. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining Pensiya jamg'armasini boshqarishdagi ishtiroki. Moliya vazirligining Pensiya jamg'armasi tizimini boshqarishdagi vakolatlari.

Pensiya jamg'armasi daromadlari tizimi

Pensiya jamg'armasi daromadlarining mazmuni va manbalari. Pensiya jamg'armasi daromadlari tarkibi, tuzilishi va dinamikasi. Pensiya jamg'armasi daromadlarining tushumini ta'minlashda soliq idoralarning ahamiyati. Pensiya jamg'armasi daromadlarining shakllanishida xo'jalik yurituvchi sub'ektlar va aholining ishtiroki. Pensiya jamg'armasi daromadlari barqarorligini ta'minlash. Pensiya jamg'armasining daromad bazalarini mustahkamlashning bugungi kundagi muammolari.

Pensiya jamg'armasi mablag'laridan foydalanish

Pensiya jamg'armasi xarajatlarining mazmuni, tarkibi va tuzilishi. Pensiya jamg'armasi xarajatlarining jamg'arma funksiyalari bilan bog'liqligi. Pensiya jamg'armasidan amalga oshiriladigan pensiyalar, nafaqalar va boshqa to'lovlar. Pensiya jamg'armasi daromadlari va xarajatlari mutanosibligini ta'minlash. Pensiya jamg'armasi mablag'larining balansliligi muammosi. Jamg'arma mablag'larini tartibga solish va boshqarish.

Pensiya jamg'armasi g'azna ijrosini tashkil qilish

Pensiya jamg'armasining g'azna ijrosini tashkil qilish. Pensiya jamg'armasi g'azna ijrosining huquqiy asoslari. Pensiya jamg'armasining daromadlari g'azna ijrosini tashkil qilish. Pensiya jamg'armasining xarajatlari g'azna ijrosini tashkil qilish. G'aznachilik sharoitida Pensiya jamg'armasi mablag'larining ularni oluvchilarga etkazilishi. Pensiya jamg'armasi g'azna ijrosi mexanizmining o'ziga xos xususiyatlari.

Pensiya jamg'armasi nazorati

Pensiya jamg'armasi faoliyatini nazorat qilishning mazmuni, vazifalari va ahamiyati. Nazoratning turlari, shakllari va usullari. Pensiya jamg'armasi nazoratida dastlabki nazorat, uni amalga oshirishning vazifalari. Joriy nazoratning mazmuni, mexanizmi. So'nggi nazorat shakllari, uni amalga oshiruvchi organlar, ularning vazifalari, huquq va majburiyatlari.

Pensiya jamg'armalarining moliya bozoridagi ishtiroki

Pensiya jamg'armalari – moliya bozorlarining ishtirokchisi sifatida. Pensiya jamg'armalarining moliya bozorida ishtirok etishidan maqsad va vazifalari. Pensiya jamg'armasi aktivlarini boshqarish. Moliya bozorida Pensiya jamg'armasi mablag'larini ko'paytirishda foydalanish yo'llari.

Nodavlat pensiya jamg'armalari

Mamlakat moliya tizimida nodavlat pensiya jamg'armalarining o'rni. Nodavlat pensiya jamg'armalarining zarurligi, pensiya ta'minotini yaxshilashdagi ahamiyati. Nodavlat pensiya jamg'armalarining maqsad va vazifalari. Nodavlat pensiya jamg'armalarining moliya bozoridagi ishtiroki. Nodavlat pensiya jamg'armalari faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish va nazorat qilish. Nodavlat pensiya jamg'armalarini soliqqa tortish mexanizmi.

Pensiya jamg'armasi taraqqiyoti istiqbollari

Pensiya jamg'armasi faoliyatining huquqiy asoslarini mustahkamlash. Pensiya jamg'armasi daromadlari tushumi barqarorligini ta'minlash. Pensiya jamg'armasi xarajatlaridan oqilona foydalanish. Pensiya jamg'armasi budjetining balansliligini ta'minlash. Davlat moliyasini boshqarish tizimini isloh qilish talablari doirasida Pensiya jamg'armasi faoliyatini takomillashtirish.

Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlarda talabalar pensiya jamg'armasi faoliyatini to'liq o'rganadilar. Amaliy mashg'ulotlarning tavsiya etiladigan mavzulari:

1. "Pensiya jamg'armasi faoliyati" fanining predmeti, maqsad va vazifalari
2. Pensiya jamg'armasining zarurligi va ahamiyati
3. Pensiya jamg'armasi faoliyatining huquqiy asoslari
4. Pensiya siyosati va pensiya faoliyati mexanizmi
5. Pensiya jamg'armasini boshqarish
6. Pensiya jamg'armasi daromadlari tizimi
7. Pensiya jamg'armasi mablag'laridan foydalanish
8. Pensiya jamg'armasi g'azna ijrosini tashkil qilish
9. Pensiya jamg'armasi nazorati
10. Pensiya jamg'armalarining moliya bozoridagi ishtiroki
11. Nodavlat pensiya jamg'armalari
12. Pensiya jamg'armasi taraqqiyoti istiqbollari

Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha kafedra professor-o'qituvchilari tomonidan ko'rsatma va tavsiyalar, ta'lim texnologiyalari ishlab chiqiladi. Unda talabalar asosiy ma'ruza mavzulari bo'yicha olgan bilim va ko'nikmalarini amaliy masalalar echish orqali yanada boyitadilar. Shuningdek, darslik va o'quv qo'llanmalar asosida talabalar bilimlarini mustahkamlashga erishish, tarqatma materiallardan foydalanish, ilmiy maqolalar va tezislarni muhokama qilish orqali talabalar bilimini oshirish, masalalar echish, mavzular bo'yicha ko'rgazmali qurollar tayyorlash va boshqalar tavsiya etiladi.

Mustaqil ta'limni tashkil etishning shakli va mazmuni

Namunaviy o'quv rejada mazkur fan bo'yicha mustaqil ishlashga tegishli soat ajratilgan bo'lib, unda quyidagilar ko'zda tutilgan: mazkur fan mavzulari bo'yicha tarqatma materiallar tayyorlash; tegishli mavzular bo'yicha ilmiy loyihalar yozish; fan mazmunini boyitish va uning ma'lumotlarini yangilab borishda axborot resurslaridan foydalanishni yo'lga qo'yish; fandan tavsiya etilgan chet el adabiyotlari ma'lumotlarini tarjima qilish va fanga tadbiiq etish; talabalar fanni mukammal o'zlashtirishlarini ta'minlash maqsadida mazkur fanga oid muammolarni hal qilish yo'llarini izlab topish va muammolarni maqolalar orqali yoritish.

Mazkur fandan talabalar belgilangan mavzulardan biri bo'yicha mustaqil ta'lim kompleksini bajaradilar. Mustaqil ta'lim kompleksida talaba mavzuga oid qonunchilik sharhini, pensiya ishi amaliyotidagi uslubiy ta'minotni, ilmiy va maxsus adabiyotlar hamda boshqa manbalardagi materiallarning, statistik ma'lumotlarning tahlilini qamrab oluvchi tadqiq namunasini bajaradi va uning natijalari talabalar bilimini baholash reyting tizimi talablariga muvofiq amalga oshiriladi. Mustaqil ta'limga mo'ljallangan topshiriqlar ma'ruzalar mavzulari, amaliy mashg'ulotlar mavzulari va ilmiy ishlarning mazmuniga mos keladi va

talaba bilimi hamda kasbiy ko'nikmalariga javoban ular tadqiq jarayoni uzluksizligini asoslashga qaratilgan.

Tavsiya etilayotgan mustaqil ta'lim mavzulari:

1. "Pensiya jamg'armasi faoliyati" fanining iqtisodiy fanlar va ixtisoslik fanlar tizimidagi o'rni va ahamiyati.
2. Pensiya jamg'armasining pensiya ta'minotini mablag' bilan ta'minlashdagi o'rni va ahamiyati.
3. Pensiya jamg'armasining jamlanma budjet va davlat maqsadli jamg'armalari tarkibida tutgan o'rni va ahamiyati.
4. Pensiya jamg'armasi – boshqaruv organi sifatida.
5. Pensiya jamg'armasi faoliyatining huquqiy asoslari.
6. "Davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi Qonunning qabul qilinishi, uning mazmuni, tarkibi, ijtimoiy ta'minot munosabatlarini tartibga solishdagi ahamiyati.
7. Pensiya qonunchiligidagi o'zgarishlar va rivojlanish istiqbollari.
8. Pensiya jamg'armasi - davlat ijtimoiy siyosatini amalga oshirish quroli sifatida.
9. Mustaqillik yillarida O'zbekiston Respublikasi pensiya siyosatining rivojlanish bosqichlari, maqsad va vazifalari.
10. Mamlakatda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda Pensiya jamg'armasidan foydalanishning asosiy yo'nalishlari.
11. Davlatning Pensiya jamg'armasi mablag'larini boshqarish va tartibga solishdagi siyosatining o'ziga xos xususiyatlari.
12. Pensiya jamg'armasining markaziy va mahalliy boshqaruv organlari, ularning Pensiya jamg'armasi tizimini boshqarish organlarining vakolatlari, huquq va majburiyatlari.
13. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining Pensiya jamg'armasini boshqarishdagi ishtiroki.
14. Pensiya jamg'armasi daromadlari tarkibi, tuzilishi va dinamikasi.
15. Pensiya jamg'armasi daromadlarining tushumini ta'minlashda soliq idoralarining ahamiyati.
16. Pensiya jamg'armasi daromadlari barqarorligini ta'minlash.
17. Pensiya jamg'armasining daromad bazalarini mustahkamlashning bugungi kundagi muammolari.
18. Pensiya jamg'armasi xarajatlarning mazmuni, tarkibi va tuzilishi.
19. Pensiya jamg'armasi daromadlari va xarajatlari mutanosibligini ta'minlash.
20. Pensiya jamg'armasi mablag'larini tartibga solish va boshqarish.
21. Pensiya jamg'armasining g'azna ijrosini tashkil qilish.
22. Pensiya jamg'armasi faoliyatini nazorat qilishning mazmuni, vazifalari va ahamiyati.
23. Pensiya jamg'armalari – moliya bozorlarining ishtirokchisi sifatida.
24. Pensiya jamg'armasi aktivlarini boshqarish.

25.Moliya bozorida Pensiya jamg'armasi mablag'larini ko'paytirishda foydalanish yo'llari.

26.Nodavlat pensiya jamg'armalarining zarurligi, pensiya ta'minotini yaxshilashdagi ahamiyati.

27.Nodavlat pensiya jamg'armalari faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish va nazorat qilish.

28.Pensiya jamg'armasi faoliyatining huquqiy asoslarini mustahkamlash.

29.Pensiya jamg'armasi daromadlari tushumi barqarorligini ta'minlash.

30.Pensiya jamg'armasi xarajatlaridan oqilona foydalanish.

31.Davlat moliyasini boshqarish tizimini isloh qilish talablari doirasida Pensiya jamg'armasi faoliyatini takomillashtirish.

Dasturning informatsion-uslubiy ta'minoti

Mazkur fanni o'qitish jarayonida ta'limning zamonaviy usullari, pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo'llanilishi nazarda tutilgan.

Pensiya jamg'armasi faoliyatining nazariy asoslari bo'limiga tegishli ma'ruza darslarida zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida prezentatsion va elektron-didaktik texnologiyalardan;

Pensiya jamg'armasi daromadlari va xarajatlari tizimi bo'limiga tegishli mavzularni o'zlashtirishda aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash, situatsion vazifalarni bajarish kabi pedagogik texnologiyalardan;

Pensiya jamg'armasi amaliy faoliyatini tashkil etish bo'limidagi mavzularni o'zlashtirishda kichik guruhlar musobaqalari, guruhli fikrlash, talabalar prezentatsion ishlarining taqdimoti muhokamasi kabi texnologiyalarni qo'llash nazarda tutiladi.

Darsliklar va o'quv qo'llanmalar ro'yxati

Asosiy adabiyotlar:

1. Qosimova G.A, Karimova Z.X. Byudjetdan tashqari fondlar. O'quv qo'llanma. –T.: "IQTISOD-MOLIYA". 2009. - 202 b.

2. Srojiddinova Z.X. O'zbekiston Respublikasi budjet tizimi. T.:Infocom. 2010.

3. Tuxturova. M. Pensionnie obespecheniya grajdan. Spravochnik dlya naseleniya «NORMA» 2010g.

4. Xaitov A.A., Ziyadullaev M. O'zbekistonda pensiya ta'minoti va xorij tajribasi. –T.: "Adolat". 2009. - 172 b.

5. Srojiddinova Z.X. O'zbekiston Respublikasi budjet tizimi. T.:Infocom. 2010.

6. Borisenko N. Yu. Pensionnoe obespechenie: Uchebnik / — M.: Izdatelsko-torgovaya korporatsiya «Dashkov i K°», 2009. — 576 s.

7. Pensionniy fond Rossiyskoy Federatsii: Uchebnik / L. V. Fedorov. — 2-e izd. — M.: Izdatelsko-torgovaya korporatsiya «Dashkov i K°», 2010. — 396 s.

Qo‘shimcha adabiyotlar:

8. Vahobov A., Malikov T. Moliya: Umumdavlat moliyasi. O‘quv qo‘llanma. T.: Iqtisod-moliya, TMI-2010, 595 b.

9. Malikov T., Vahobov D.R., Moliya: chizmalarda. O‘quv qo‘llanma. T.: Iqtisod-moliya, 2010, 660 b.

10. Xaydarov M., Suvonqulov A., Sugirbaev B., Nurmatov B. “Davlat budjeti ijrosining g‘aznachilik tizimi”. – T.: “IQTISOD-MOLIYA”.2010 y.

11. Malikov T., Jalilov T., Byudjet-soliq siyosati. O‘quv qo‘llanma. T.: Akademnashr, 2011, 472 b.

12. Qosimova G.A. Ijtimoiy-madaniy sohalarni rivojlantirishda budjet siyosati / G.A. Kosimova. - T.: Toshkent moliya instituti, 2004. – 152 b.

13. Vahobov A.V. Bozor munosabatlari tizimidagi ijtimoiy fondlar. – T.: Sharq, 2003 – 320 b.

14. Internet saytlari:

www.mf.uz

www.gov.uz

www.lex.uz

www.stat.uz

www.pfru.uz

www.uzreport.co

www.undp.uz

www.publicfinance.uz

